

TALABA-YOSHLARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF DEVELOPMENT OF FAMILISTIC
COMPETENCE OF STUDENTS.

Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich

*Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrası p.f.b.f.d.(PhD).*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning familistik kompetensiyasini rivojlantirish, oilada ota-onani bola tarbiyalashdagi o'рни, talaba, aka-uka opa-singil o'rtasidagi munosabat, oilada shaxsning rivojlanishi, kabi masalalar yoritib o'tilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются такие вопросы, как развитие семейной компетентности учащихся, роль родителей в воспитании детей, взаимоотношения учащихся, братьев и сестер, развитие личности в семье и др.*

Abstract: *In this article, issues such as the development of familistic competence of students, the role of parents in the upbringing of children, the relationship between students, brothers and sisters, and the development of personality in the family are covered.*

Kalit so'zlar: *shaxs, rivojlanish, familistik kompetensiya, orzu-havaslar, pedagogik tizim, tarbiya, talaba, ota-ona, or-nomu, oila. sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik.*

Ключевые слова: *личность, развитие, семейная компетентность, желания, педагогическая система, образование, ученик, родители, честь, семья. верность, храбрость, отвага, самопожертвование, честность, правдивость, честность, совестливость, самообладание, мальчишеская гордость, честь, доброта.*

Key words: *personality, development, familistic competence, desires, pedagogical system, education, student, parents, honor, family. loyalty, bravery, courage, self-sacrifice, honesty, truthfulness, honesty, conscientiousness, self-control, boyish pride, honor, kindness.*

Familistik kompetensiyasini rivojlantirishda talaba-yoshlarning tarbiyasi juda muhim sanaladi shuning uchun farzand tarbiyasida odatda ota o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq shug'ullanadi. Albatta, bolaning darajasini hisobga olish muhimdir. Shuning uchun o'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Uzluksiz manaviy tarbiya konsepsiyasi dasturi asosida talabalarni familistik kompetensiyani shakllantirishning xuquqiy asoslarini "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini

shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish; muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi; bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish; o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish; kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi; bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi; o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi; xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash; kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish; vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish; tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish; axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi; mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

Mehr berishda me'yorni ushlab turish ham kerak. Bolaning hamma aytganini qilish, barcha to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash, hatto jim turish ham bolaning butunlay tarbiyasiz bo'lib ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Haddan tashqari erkalash bolani har tomonlama zaiflashtiradi, mehr ko'rsatish esa uni faolroq bo'lishga undaydi. Oilada befarqlik bilan o'sgan bola mas'uliyatsiz, xudbin bo'lib ulg'ayadi. Bolaning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida ona xizmati juda zarur va muhimdir.

Tarbiyadagi eng muhim vosita bolani mehr va shirinlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bitta narsani tashkil qiladi. Xususan, ta'limni jahl va jazo bilan qilmaslik yaxshiroqdir. Axir, majburiy ta'lim yoshlarning xotirasidan tezda yo'qoladi. Natijada uning bu sohaga qiziqishi susayishi mumkin. Ta'limning boshlanishi ham yaxshi tarbiyadan boshlanishi aniq.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ijtimoiy muammolardan biri - bu uyali telefonni ta'qib qilish va ijtimoiy tarmoqlarni o'rganib intellectual jihatdan o'sib borish. Ushbu zamonaviy aloqa vositalari muhim muloqot vositasi bo'lsa-da, ma'naviyati to'liq shakllanmagan ayrim yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ota-onalar ta'lim muassasalari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoq ta'siriga uchragan yoshlarga muloqot vositalarining asl mohiyatini tushuntirishi kerak.

Ota-onalikdan tashqaridan salbiy ta'sir eng katta xavf hisoblanadi. Chunki bolaga oilada bu borada erkinlik berilmasa, u o'zining qiziqishlari va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan qidira boshlaydi. Bu shuni anglatadiki, ota-onalar ham farzandining tashqi hayotiga jiddiy e'tibor berishlari kerak. Ya'ni, ular farzandining maktab yoki kollejdandan keyin qayerga borishini, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilishlari zarur. Ota-onalar farzandini vaqtini samarali o'tkazishga o'rgatishda vosita sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan yana bir usul zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Ota-ona farzandini o'zi bilan birga tabiatning go'zal joylariga, muzeylarga olib borishi, shu bilan birga uning qalbiga go'zallikni singdirishi muhimdir.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;

vaqtning yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;

yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi; iqtisodiy qiyinchiliklar.

Sanab o'tilgan holatlardan so'nggi 2-tasi yoshlar xulqiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ko'p oilalarda shuni kuzatishimiz mumkinki, aksar hollarda ona oqila va shirin so'z bo'lsa, qizlar ham yaxshi tarbiya topadilar. Erkak aqlli, uddaburon bo'lmagani holda o'g'ilning erkatoiy, noqobil bo'lish o'sishi, hayotda o'z o'rnini topishga qiynalish faktlari uchrab turadi. Bu esa oilada, tevarak-atrofdagi o'g'il bola tarbiyasida ijtimoiy nazoratning susayib ketganligidan darak beradi.

Ayolning oiladagi fundamental funksiyasi esa bola tug'ib-tarbiyalash, ro'zg'or yuritish, oila mablag'larini, oila budjetini oila a'zolarining ehtiyojlariga qarab to'g'ri taqsimlay bilish hisoblanadi. Shuningdek, farzandlar ongi va xatti-harakatida orastalik, chevarlik, estetik didni shakllantirish, mehnatkash va xushxulq qilib tarbiyalash ham onaning vazifalaridir. Shu bilan birgalikda har ikkala jins vakillari uchun oilada yuzaga kelgan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini ola bilish vazifalari ham mavjud.

Yaqin-yaqingacha o'zbek oilasida mavjud bo'lgan bir haqiqat shunda ediki, unda bola shaxsini shakllantirish, aqlan, ruhan, jismonan sog'lom qilib tarbiyalashda onaning o'rni katta edi. Qisqasi, oilaning ma'naviy ta'minotining ma'lum qismi ayolning zimmasida. Ota bolaning tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanmay, balki ko'pincha ona tarbiya jarayonida ota shaxsidan foydalanar edi. Masalan: onalarimiz «otangga aytaman», deb biz farzandlarni yomon ishdan qaytarar, «otangga qanday aytamiz?» deb qilgan ishimizning yomonlik darajasini anglatar va bu bilan bizga otamizning ta'sir kuchini oshirar edi. Farzandini tarbiyalashda onaga otaning shaxsi, obro'yi qo'l kelar edi. Ota esa tarbiya jarayoniga favqulodda holatlarda yoki bolaning qilmishi «gazak» olganda bevosita aralashgan. Bungacha bo'lgan jarayon ona orqali boshqarilar edi.

Bugun ham oilada otaning shu mavqeini yo'qotmaslik, millat, xalq va jamiyat taqdiriga befarq emasligimizni ko'rsatadi.

Oxirgi holat bir tomondan, ayni paytda yoshlarning orzu-havasning ko'payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomondan, ota-onalarning orzu-havaslarini, bordi-keldi bilan bog'liq sarf-xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda kundun-kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun yetarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari hal bo'lgan yosh oilada ham nimalardir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu - o'sha orzu-havaslar, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bois ham yurtimizda yosh oila manfaatlarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma'naviy immuniteti mustahkam, o'z fikrini ravon ifoda eta oladigan, yuksak natijalarga erishadigan yosh avlodni tarbiyalashda ota-ona va oila muhiti juda muhim. Sir emaski, inson qalbi va ongini zabt etish, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy olamini zaharlashdek turli xavf-xatarlar bugungi zamonda kuchaymoqda. Muqaddas zaminimizni yot ta'sir va ofatlardan asrash, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga kuchli yosh avlodgina qodir bo'ladi. Farzandlarimizni shunday tarbiyalaylikki, ular o'z ajdodlariga, o'z tarixiga, Vatanga, ona tilisiga, millatiga, diniga, urf-odatlariga sodiq bo'lib voyaga yetishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdusmatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko'p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*
2. Usmanova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. -T.: O'zbekiston. 2000 y.
3. Ismoilov, S. (2021). SPECIFIC FEATURES OF FORMATION OF FAMILY VALUES IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 693-696.
4. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMIY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.
5. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.
6. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 874-879.
7. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 476-479.
8. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.
9. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6.
10. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.

11. Baydjanov, B. K. (2021). **PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.** Theoretical & Applied Science, (7), 171-178.

12. Baydjanov, B. K. (2022). **Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities.** American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 352-363.

13. Baydjanov, B. (2021, June). **HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION).** In Конференции.

14. Baydjanov, B. (2021, June). **HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION).** In Конференции.

15. Baydjanov, B. (2021, March). **COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS' VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY.** In Конференции.

16. Khaitboevich, B. B. (2020). **Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process.** European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(10), 69-72.